



NAJMIDDIN KUBRO - JASORAT VA OLIYJANOBLIK NAMUNASI

Jo'rayeva Oysha Karimovna

Buxoro viloyati jondor tumani 45- maktab 11-sinf o'quvchisi

*Ko'rdimki, eng noyob ne'mat rostgo'ylik va qahramonlik,
eng og'ir og'riq esa yomon va munofiq do'stlar ekan.*

Najmiddin Kubro

Najmiddin Kubro- ulug' shayx , tasavvufning taniqli vakillaridan biri, kubroviylik tariqatining asoschisi . Uning taxallusi "dinning ulug' yulduzi" ma'nosini beradi. Najmiddin Kubroning yoshligidan karomat ko'rsatish , voqealarni oldindan bilishi , o'tkir nazari bilan olish xislatiga ega inson bo'lganligi haqida ta'sir eta rivoyatlar tarqalgan .Najmiddin 1145-yili xiva shahrida dunyoga keladi .Asl ismi Ahmad ibn Umar Muhammad Xivaqiy Xorazmiy bo'lib ismiga "Najmiddin" , "Abuljannob" ,"Valiytarosh" kabi unvon va nomlar qo'shib aytilgan . Abdurahmon Jomiyning "Nafahotul uns " asarida qayd etilishicha , Kubro yoshligidan ilmga qiziquvchanligi va qobiliyati bilan ajralib turgan .U Islom asoslari , shariat ilmlarini juda tez o'zlashtirib , Xorazmning o'sha paytdagi ulamolaridan ancha ilgari ketadi va "Najmiddin – Din yulduzi" degan nomni oladi . Ali Akbar Dehxudoning mashhur "Lug'atnoma"sida keltirilishi-cha , "U kishining Kubro deb atalishlariga sabab shuki , behad ziyrakliklari va tunganmas zakovatlar tufayli har qanday muammoli masala so'ralganda hal qilib berar edilar va har kim u kishi bilan bahs – munozara qilsa , g'olib chiqar edilar". Shuningdek , u kishini Tammatul Kubro , yani buyuk balo va qazolarning oldini oluvchi , xaloskor deb ham atashgan . " Abuljannob " deb atashlariga sabab esa u kishining dunyoviy ikir – chikirlardan uzoq turganliklaridir . Ul zotni "Valitarosh " (valiylarni parvarishlab yetishtiruvchi) deb ham atashgan . Chunki umrlari davomida 12 kishini o'z muridliklariga qabul qilganlar va ularning barchasini shayx darajasiga yrtkazganlar .Ular qatorida mashhur shayxlardan Farididdin Attorning otasi Majididdin Bag'dodiy va Jaloliddin Rumiyning otasi Bahouddin Valad , Najmiddin Doya Roziy , Sa'diddin Hamaviy , Sayfiddin Boharziy va boshqalar .

Shariat ilmlarini o'rganish barobarida tariqatdan ham xabardor bo'lishga intilib , qator shayxlar , darveshlar suhbatida bo'ladi , xonaqolarda xilvat o'ltirib , riyozat bilan mashg'ul bo'ladi . Najmiddin Kubro 16 – 17 yoshida ilm izlab Misrga boradi . U Misrda Sharq falsafasi bilan shug'ullanadi va uning sirlarini o'rganadi . Misrda Ro'zbehon Bazzon Misriydan ta'lim oladi . Shayx Ro'zbehon mashhur mutasavvif Abu Najib Suhravardiy qo'lida tarbiya topgan edi . U Najmiddin Kubroni o'z o'g'liday yaxshi ko'rib , alohida mehr bilan tarbiyalaydi . Keyinchalik qizini shogirdiga nikohlab beradi va o'ziga kuyov qiladi .

Insoniyat ma'naviy olamida eng yetuk va eng murakkab ta'limot tasavvuf ilmiy ta'limotidir . Tasavvuf ta'limoti Ollohga intilish bo'lib , o'zligini anglab , qalbining ochilmagan imkoniyatlarini ishga solish , bu bilan Ollohning karomat nuridan



bahramand bo'lish uchun o'z kamoloti sari yo'l tutib , o'z ruhini Ollohga yaqinlahtiradi. Kubroviya tariqati ham Qur'oni Karim va Hadisi sharifdagi ta'limot asosida shakllanganidir . Komil insonni tarbiyalash bu tariqatning asosiy vazifasi bo'lib , Shayxning hayoti katta saboq , ulkan maktabdir . Kubroviya tariqatida talab, sadoqat , muhabbat , oshiqlikning inson uchun naqadar zarur ekanligi ta'kidlanadi. Kubroviya tariqasi haqiqatni kuylash, Ollohga bo'lgan ishqni kuylash , haq yo'liga da'vat qilishga bag'ishlangan.

Yurmoq uchun Haq yo'liga yetmoq shart ,
Boshqasidan ko'zni yumib ketmoq shart ,
Elga shifo baxsh etu , och ko'zlarni ,
Olam hama – ul , unga nazar etmoq shart

Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlarining bosqinchilik yurishlari natijasida Xorazmshohlar davlati bosib olindi . Mo'g'ullar qurgan tuzoqlarga bir necha marta tushib, o'z harbiy kuchlarining anchagina qismidan ajralgan Xorazmshoh Muhammad o'z yurtini tashlab ketadi . Shahar aholisi himoyasiz , yetakchi qiladigan sardorsiz qoladi . Shunday og'ir vaziyatda 76 yoshli Najmiddin Kubro shaharni himoya qilishni o'z zimmasiga oladi . Najmiddin Kubro shahar himoyachilariga qarata iltijo bilan “Yo Vatan, yo sharafli o'lim!” deb xitob qiladi . Dahshatli qirg'inbarot Gurganch fojiasi 7 oy davom etadi . Son jihatdan ustun bo'lgan dushman hisobsiz qurbonlar evaziga g'alabaga erishadi , gurganchliklar esa taslim bo'ladi . Jarohatlangan Shayx Najmiddin Kubro o'limi oldidan tug' tutgan mo'g'ul sarboziga tashlanib , bir qo'li bilan uni qatl etayotgan mo'g'ul yaylovining uchini ushlab turgan . Oxiri qo'lini qirqib tug'ni olganlar .

Keksa shayx va donishmand insonning mo'g'ullarga qarshi jangdagi qahramonligi, jasorati avlodlarga ibrat bo'lib qoldi . Kubro shaxsi va uning merosi O'zbekistonda mustaqillik tufayli o'rganila boshlandi . 1995- yilda O'zbekistonda Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi nishonlandi . Shunday qilib , Xorazmning buyuk farzandi o'z ona Vatanini dushmanlardan himoya qila turib o'lim topdi . Najmiddin Kubro 1221 – yilda o'zi muallimlik qilgan xonaqohga dafn etildi . Shayx Najmiddin Kubro insoniyat tarixidagi eng e'tiborli siymolardan biridir , uning nomi Sharqda asrlardan buyon vatanparvarlik timsoli bo'lib kelmoqda.